

Date: 13th May-2025

**MA'MURIY JAZOLARNING HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASIDAGI
AHAMIYATINI OSHIRISHDA CHET EL TAJRIBASINING O'RNI HAMDA
USHBU SOHADA UCHRAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF
ETISH**

Ravshanov Diyorbek Muxtor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o'quv kursi 313-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ma'muriy jazo choralarini huquqbuzarliklar profilaktikasida qo'llash faoliyatini takomillashtirish, ushbu jarayonning bugungi kundagi holati hamda Ichki ishlar organlarining ma'muriy jazo choralarini qo'llash faoliyatini takomillashtirishni tashkil etish bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Bundan tashqari, ma'muriy jazo choralarini huquqbuzarliklar profilaktikasida qo'llash faoliyati amalyoti tahlili hamda ushbu faoliyat doirasida yuritiladigan protsessual hujjatlar, muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar berilgan. Ma'muriy jazolarning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ahamiyatini oshirishda chet davlatlar qonunchiligining qulay hamda foydali jihatlari, ulardagi yutuq hamda muammolar, Ichki ishlar organlarining ma'muriy jazo choralarini qo'llash faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslari, shuningdek yuqorida ko'rsatib o'tilgan jihatlardan foydalangan holda ushbu faoliyatni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritib o'tilgan.

Abstract: This scientific article describes the current state of this process and the specific features of the organization of improving the application of administrative penalties in the prevention of offenses. In addition, an analysis of the practice of applying administrative penalties in the prevention of offenses and procedural documents, problems and shortcomings, and a number of proposals for their elimination are given. The favorable and useful aspects of the legislation of foreign countries in increasing the importance of administrative penalties in the prevention of offenses, their achievements and problems, the organizational and legal framework of the application of administrative penalties by the internal affairs bodies, as well as the main directions for improving this activity using the above aspects are highlighted.

Kalit so'zlar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi, ma'muriy jazo, ma'muriy qaror, chet el tajribasi, qonunchilik, ijro etish, ma'muriy bayonnoma, kvitansiya.

Key words: Crime prevention, administrative penalty, administrative decision, foreign experience, legislation, enforcement, administrative report, receipt.

Ma'muriy jazo choralarini qo'llash faoliyatini yuritish har bir ishni har tomonlama, ob'ektiv qat'iy ravishda qonunga asoslangan holda ko'rib chiqishni va qonunga muvofiq jazo belgilashni talab etadi. Ma'muriy jazo choralarini qo'llash faoliyatini yuritishga vakolatli organlar (mansabdor shaxslari) doirasida Ichki ishlar organlari ham muhim o'rin tutadi. Shu bois ma'muriy jazo choralarini qo'llash vakolatiga ega bo'lgan Ichki ishlar



Date: 13th May-2025

organlarining ham mazkur faoliyatida ma'muriy protsessual harkatlarini qanday va qay tarzda qo'llanilishini bilish, ularni tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Ichki ishlar organlarining ma'muriy jazo choralari qo'llash faoliyatida ilg'or xorij tajribalarini aniqlash, umumlashtirish, ommalashtirish O'zbekiston Respublikasi sharoitida ularni ma'muriy amaliyotga joriy etish uchun taklif va tavsiyalar kiritib, ma'muriy amaliyotdagi ish yuritishni ahvolini yaxshilash, muammo va kamchiliklarini bartaraf etishdan iboratdir. Bu borada Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy kodeksi o'rganildi va unda turlicha yondashuvlar mavjud. Bulardan quyidagilarni ko'rish mumkin:

Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy kodeksiga binoan ma'muriy jazo choralari quyidagilardan iborat:

- ogohlantirish
- jarima;
- huquqbuzarlik sodir etish qurolini haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish yoki musodara qilish;
- muayyan huquqdan mahrum qilish;
- ma'muriy yo'l bilan ushlab turish;
- chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni Rossiya Federatsiyasidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish;
- faoliyatni vaqtincha to'xtatib turish;
- majburiy ishlarga jalb etish;
- rasmiy sport o'yinlari o'tkaziladigan joylariga tashrif buyurish kunida ma'muriy taqiqlar qo'yish;

Mazkur ma'muriy jazo choralari qo'llashda bir qator yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar inobatga olinadi.

Quyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarining politsiya ishini tashkil etish va polsiya nazoratini olib borishda qo'llanilayotgan bazi huquq tartibot sohasidagi xizmatlarni, ularning o'ziga xos va qulay tomonlari afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz. Shuni ta'kidlash joziki Yevropa Ittifoqida mazkur markazlar o'zaro ma'lumot almashish ta'minlangan avtomat ishlovchi tizimlarga ham ega, bu esa o'z navbatida politsiya organlarining hamjihatlikda faoliyat yuritishini ta'minlaydi va qisqa vaqt ichida qoidabuzarlarni aniqlashga yordam beradi.

Misol uchun Gollandiya davlatining xavfni oldindan bilish tizimi judayam e'tiborga loyiq. Gollandiyada «Risico» (Xavf) nomli xavfni oldindan bilish dasturi mavjud. Mazkur dastur Huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlarni ularni prognoz qilish orqali o'zida jamlaydi. Politsiya xizmatiga joriy qilingan mazkur dastur orqali Gollandiyada politsiya nazoratini avtomatik tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi ma'lumot bazasini yartishga erishildi. Bu dastur orqali Huquqbuzarliklarni aniqlash imkoniyati oshadi.

Yevropa Ittifoqida ko'p hollarda quyidagi qoidabuzarlik holatlari aniqlanadi:

Yo'l transport hodisasi;

Obodonlashtirish qoidalarini buzish Bojxona qoidalarini buzish;

Pasport tizimi qoidalarini buzish va boshqalar.



Date: 13th May-2025



Yevropa davlatlarida masalan AQSHda muhim bo'lgan yana bir omil oldindan xabar berish mexanizmidir. Bu mexanizm jinoyatlar yo'nalishi haqida oldin boshqa davlat organi politsiya xizmatini xabardor qilishni nazarda tutadi. Bu orqali organ inspektorining ancha vaqti tejaladi va politsiya nazoratini imkon qadar tezkor ravishda olib borishga hamda hujjatlar rasmiylashtiruvini amalga oshirishda ortiqcha vaqt ushlab qolishlarsiz amalga oshiradi.

Mazkur tizim oldindan elektron tarzda xabar olish orqali jinoyatchilar yoki jinoyat vositalarini mazkur davlat hududiga kelib tushguniga qadar ular haqida axborot olish va bu oqrali politsiya nazoratini olib borishda va xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar haqida oldindan xabardor bo'lish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, o'n yil davomida yevropa davlatlari politsiya organlariga yevropa Ittifoqi davlatlarida xavfni boshqarish tizimlari joriy etilgani va bu borada muhim yutuqlarga erishilgan.

Bu borada Singapur politsiyasi nazoratini amalga oshirishda, xavfni boshqarish tizimlaridan samarali foydalanadi. Singapurda hujjatlarni rasmiylashtiruvini soddalashtirish va tezlashtirishga milliy elektron tizimni ishlab chiqish orqali erishildi. Singapurda TradeNet nomli xavfni oldinlan bilish tizimi joriy qilingan. Bu tizim 1989-yilda joriy qilingan bo'lib hozirga qadar amal qilib kelmoqda. Bugungi kunda Singapurda politsiya rasmiylashtiruvini faqat elektron ravishda TradeNet va TradeXchange tizimlari orqali amalga oshiriladi.

TradeNet elektron tizimi bir yilda 9 millionga yaqin arizalarni, murojaatlarni qayta ishlaydi. Kelib tushgan murojaatlarning 90% i o'n daqiqada qayta ishlanadi. TradeNet va TradeXchange tizimlari ko'payishi va kamayishi harakati bo'yicha hujjatlarni qayta ishlaydi. Shunisi e'tiborga loyiqki mazkur tizimlar rasmiy davlat organlari tomonidan ishlab chiqilgan hamda ular tomonidan bu dasturlarga xizmat ko'rsatiladi. Bu tizimlarni uni ishlab chiqaruvchisi bo'lgan "CrimsonLogic Pte Ltd" xususiy kompaniyasi amalga oshiradi va davlat politsiya organlari bilan hamkorlikda mazkur dasturlarning ish faoliyatini ta'minlaydi. Bunday aralash faoliyat ko'rinishi ikki tomonga ham foydalidir. Xitoyda yangi "Elektron kozoynak" ixtiro etildi. Uning qulayliklari shundan iboratki, jinoyatchilarni oldindan aniqlash imkoniyatiga ega. Huquqbuzarlik sodir etib yashirilib yurgan qidiruvdagi shaxslarni avtomatik tarzda yuz va gavda tuzilishi skaynerdan o'tkazib, elektron bazadagi ma'lumotdan foydalanib solishtirib beradi, agar aniqlansa, qora ro'yxatdan chiqarib beradi bunga atiga 2-3 sekund vaqt ketadi, bu esa jinoyatchi, huquqbuzarlarni tezda ushlab imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim lozimki, huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha amaliyotda mening fikrimcha, bir qator muammo va kamchiliklar uchramoqda:

1. Huquqbuzarliklar yakka tartibdagi profilaktikasining chora tadbiri bo'lgan rasmiy ogohlantirish ta'sir chorasi qo'llanilgan shaxslar keyinchalik ham o'zlarining g'ayriijtimoiy xulq atvorini davom ettirmoqda. Oldin ushbu shaxsga rasmiy ogohlantirish qo'llanilganligi hech qanday huquqiy ta'sir ko'rsatmayotganligi;

2. Hozirgi kunda profilaktika inspektoriga kelib tushayotgan murojatlarning katta qismi fuqarolik ishlariga taaluqliligi va uni hal etish uchun ortiqcha qog'ozbozliklar

Date: 13th May-2025

va ko'p kuch sarflashi natijasida o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajara olmayapti;

3. Fuqarolarning arizalarini ko'rib chiqishda va ularni hal qilishda yuzaki qarash va atroflicha ko'rib chiqmasdan yuzaki xulosalar tayyorlash;

4. Profilaktika inspektorining davolash-profilaktik markazlaridan qaytgan shaxslarning oilasi bilan yetarli darajada profilaktik suhbatlar tashkil etilmaganligi, jamiyat uchun foydali ish bilan ta'minlanmayotganligi, o'z holiga tashlab qo'yilishi oqibatida ushbu shaxslar shu illatlarga qayta ruju qo'yishiga olib kelayotganligi;

5. Bugungi kunda fuqarolar tomonidan qilinayotgan murojatlarning aksariyati telefon yo'qotilishi va o'g'irlanishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu murojatlarni hal qilish uzoq hududlarda xizmat qilayogan profilaktika inspektorlarining o'z hududlarini tashlab ketishiga sabab bo'lmoqda;

6. Profilaktika inspektorlariga HPBlar tomonidan kundalik yoki oylik yuklamalarning belgilanayotganligi holatlari mavjud, huquqbuzarlik holatlari sodir etilmagan yoki aniqlanmagan hollarda ushbu yuklamalarni bajarish uchun profilaktika inspektorlari tomonidan noma'lum shaxslarga yoki o'z tanishlari nomiga ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilayotganligi holatlari mavjud.

7. Profilaktika inspektorining ko'pchiligi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish va ularni qo'llash bo'yicha yetarli malakalarga ega emasliklari;

8. Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi o'z vakolat doirasida belgilagan muddat davomida undirolmagan jarimalarini jarima tuzgan profilaktika inspektorlariga qayta jo'natib yubormoqda;

Amaliyotda uchrayotgan ayrim muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan quyidagilarni taklif etaman:

1. Yuqoridagilardan kelib chiqib, qonun normasining samarali ishlashini ta'minlash, rasmiy ogohlantirishning esa ta'sir kuchini oshirish maqsadida amaldagi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga "Rasmiy ogohlantirilishiga qaramasdan g'ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirish" huquqbuzarlik turini kiritish maqsadga muvofiq sanaladi. Aks holda ushbu qonun normasini to'liq qo'llash imkoniyati chegaralanadi.

2. Har bitta hududiy IIBlarda fuqarolik ishlarini ko'rib chiqib tegishlicha xulosalar qiluvi shtat birliklar ajratish;

3. Profilaktika inspektorlariga kelib tushayotgan ariza va shikoyatlarni atroflicha ko'rib chiqish va qonuniy, asosli xulosalar qilish borasida profilaktika inspektoriga hududiy ichki ishlar organlarida maxsus tashkil etilgan komissiyalar orqali nazoratni amalga oshirish;

4. Profilaktika inspektorining davolash-profilaktik markazlaridan qaytgan shaxslarning oilasi bilan yetarli darajada profilaktik suhbatlar tashkil etish, jamiyat uchun foydali ish bilan ta'minlash, o'z holiga tashlab qo'yilishini oldini olish, ulardan muntazam ravishda xabar olib turish mahallada obro'-e'tiborga ega bo'lgan shaxslarni biriktirish,



Date: 13th May-2025

bandlik masalasini ta'minlash, halol turmush tarziga qaytishida yetarlicha imkoniyatlar yaratib berish;

5. Ushbu muammoni bartaraf etish bo'yicha har bitta tayanch punkti orqali bevosita elektron tarzda mobil aloqa kompaniyalariga so'rovnomalar yuborish tizimini joriy etish;

6. HPBlar tomonidan belgilangan kundalik yoki oylik yuklamalarni bajarish uchungina ma'muriy huquqbuzarlik holatlari aniqlanishi yoxud ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilishini bartaraf qilish uchun: profilaktika inspektorlari tomonidan aniqlanib ma'muriy bayonnoma tuzilgan yoki ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organga yuborganda, huquqbuzar tomonidan to'langan jarimaning 5% (besh foizi) miqdorini huquqbuzarlik holatini aniqlagan profilaktika inspektorining hisob raqamiga o'tishini belgilash, bunday tartib o'z o'zidan Profilaktika inspektorining ma'muriy javobgarlikka oid qonunchilik normalarini qo'llash faoliyatida izlanuvchanlik va tashabbuskorlik keltirib chiqaradi;

7. Profilaktika inspektorlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida, ma'lum bir muddatda o'qitish tizimini joriy qilish;

8. Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi o'z vakolat doirasida belgilagan muddat davomida undirolmagan jarimalarini jarima tuzgan profilaktika inspektorlariga qayta jo'natib yuborishi ko'zga tashlanib turganligi bois bu muammoga yetarlicha baho berib Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligi qo'shimcha qaror ishlab chiqishi va amaliyotga keng targ'ib etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ilmiy maqolada keltirilgan taklif va mulohazalar kelgusida Respublikamiz taraqqiyoti va Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishda o'z hissasini qo'shadi degan umiddaman.

